

**2001-2024 YILLAR MAHOBATLI HAYKALTAROSHLIK SAN'ATI**

*To'ychiyeva Matluba Tolibsher qizi*

*O'zbekiston davlat tabiat muzeyi Ekologiya bo'limi ilmiy hodimi*

[Tabiatmuzeyi1876@umail.uz](mailto:Tabiatmuzeyi1876@umail.uz)

***Annotatsiya.** Maqolada mustaqillik davri mahobatli haykaltaroshligining ilk yillari 2001-2024 yillarda tarixiy shaxslar va millatimizning ma'naviyatini yanada boyitishga qaratilgan bir qator taniqli haykaltaroshlar R.Mirtojiyev, I.Jabborov, Y.Shapiro, B.Norboyev, F.Axmedjanov, O.Olloberganov, T.To'jixojayev, U.Usmonov, J.Annazarov, O'.Axrolov, singari taniqli haykaltaroshlarning yurtimizning turli nuqtalarida millatimizning g'ururi bo'gan tarixiy otobobolarimizning simosini gavdalantirgan asarlari haqida yozilgan. Shuning bilan bir qatorda bugungi kunda ijod maydoniga kirib kelayotgan yosh haykaltaroshlar bilan ham tanishasiz.*

***Аннотация.** В статье представлены первые годы монументальной скульптуры периода независимости в 2001-2024 гг. исторические личности и ряд выдающихся скульпторов, направленных на дальнейшее обогащение духовности нашей нации Р.Миртожиев, И.Жабборов, Ю.Шапиров, Б.Норбоев, Ф.Ахмеджанов, О.Оллоберганов, Т.То джиходжаев, У.Усманов, Дж.Анназаров, О.О работах таких выдающихся скульпторов, как ахролов, воплощавших в разных точках нашей страны образы исторических предков, которые являются гордостью нашей нации. Кроме того, вы познакомитесь с молодыми скульпторами, которые сегодня выходят на арену творчества.*

***Abstract.** The article presents the first years of monumental sculpture of the period of independence in 2001-2024. historical figures and a number of outstanding sculptors aimed at further enriching the spirituality of our nation R.Mirtozhiev, I.Jabborov, Y.Shapiro, B.Norboev, F.Akhmedzhanov, [www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)*

*O.Oloberganov, T.To dzhikhodjaev, U.Usmanov, J.Annazarov, O. About the works of such outstanding sculptors like Akhrolov, who embodied the images of historical ancestors in different parts of our country, which are the pride of our nation. In addition, you will get acquainted with young sculptors who are entering the creative arena today.*

***Kalit so'zlar:*** *Mahobatli haykaltaroshlik, relief, kompazitsya, barelyef, marmar, Dastgohli haykaltaroshlik.*

***Ключевые слова:*** *монументальная скульптура, рельеф, композиция, рельеф, мрамор, Станковая скульптура.*

***Keywords:*** *monumental sculpture, relief, composition, relief, marble, Easel sculpture.*

Buyuk bobokalonlarimiz obrazini yaratish yurtimiz ko'plab haykaltaroshlarini doimo qiziqtirib kelgan va 2001-2010-yillarda ham ularning obraziga muroojat etish haykaltaroshlar orasida to'xtovsiz rivojlanishda davom etmoqta.

Jumladan 2001-yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A.Raxmatullayev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan 9 metirli A.Navoiy haykalining o'rnatilishi bunga yaqqol misoldir.<sup>1</sup>

Mustaqilligimizning ezgu-intilishlarini teranroq ifodalash, yoshlarimizning ma'naviy olamini vatanparvarlik g'oyalar asosida shakllantirish maqsadida birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 2005 yil Mustaqillik maydonida Ezgulik arkasi hamda Baxtiyor ona haykali o'rnatildi.<sup>2</sup>

2001-yil Urganch shahri markazida "Avesto monumenti" va uning atrofidagi Park qurilishi Avesto tashkil etilganining 2700 yilligi va rasmiy tantanalar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.

<sup>2</sup> O'zbekiston haykaltaroshligi katalogi (1991-2006) / O'zbekiston Badiiy akademiyasi. – T.: OOO MEDIA LAND, 2006. – 32 b.

munosabati bilan buyurtma qilingan va o'zbek arxitektori Polvonosir Salaevning re'jasi asosida va haykaltaroshlik sohasida o'z davrida amalga oshirilgan o'zgacha ijodiy yondashuv namunasidir. Bog' maydonidagi ramziy Avesto monumentini haykaltarosh R.Mirtojiyev ishladi. Qurilish tugagandan so'ng manument poydevori biroz ko'tarilgan bo'lib, unga zinapoyadan ko'tarilish mumkin. Yodgorlikning markazida Avestoning oq sahifali kitob ko'rinishidagi stilize qilingan tasviri joylashgan bo'lib, uning yon tomonlarida olovning tosh tasviri joylashgan. Ushbu haykalning tepasida to'rtta dumaloq kamar va gorizontaal tirgaklardan iborat 18 metrli konstruksiya joylashgan bo'lib, u kamin bo'lib shu bilan Zardushtiylik e'tiqodi uchun olovning ahamiyatini aks ettiradi. 2001-yil bunyod etilgan ushbu "Avesto monumenti" ochilishida birinchi Prezidentimiz chiqib nutq so'zlagandi. Islom Abdug'aniyevich Karimov Avesto kitobi va Zardushtiylik dini xalqimizning eng qadimiy tarixi haqidagi eng noyob namunalardan biri ekanligini takidlagan edi.<sup>3</sup>

Ajdodlarimiz xotirasini xalqimiz ongida yanada mustahkam o'rnatish maqsadida keyinchalik ham bir qator mahobatli haykallar ishlandi. Misol uchun Andijon shahrida o'rnatilgan «Cho'lpon» asarlarida haykaltaroshning Cho'lpon shaxsiyati va ijodiga bo'lgan ichki hurmat va munosabatlarini ko'rishimiz mumkin. Uning g'oyaviy mazmuni, ramziy ma'nodagi elementlar orqali ochib beriladi. Tomoshabin shoirning olisga termulgan nigohi ostida, mustaqillikning shafaqlariga termulgandek, ma'yus, shu bilan birga havas va ishonch nigohi bilan qarab turgan qiyofasini yaratishga muyassar bo'ladi. Cho'lpon o'tirgan kesilgan chinor daraxti, haykaltarosh tomonidan ramziy ma'noda, qatag'on yillari toptalgan xalqimizning milliy g'urur timsoli sifatida yaratilgan. Shuni aytib o'tish zarurki, shoir qiyofasi hajm jihatidan 5m.ga teng bo'lgan bronzadan quyilgan.

Xalqimizning tarixiy qahramonlaridan biri "Alpomish" dostonining dunyo xalqlari epik ijodiyotiga qo'shgan bebaho hissasini e'tiborga olib mustaqil davlatimiz xalqlarini milliy g'urur, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini keng nishonlash munosabati bilan bog'liq

---

<sup>3</sup> - <https://deru.abcdef.wiki/wiki/Avesta-Denkmal>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadida turli xayrli ishlar amalga oshirildi. Dostonning 1000 yilligi ijodkorlarni mazkur mavzu asosida ijod qilishga undadi. San'atning turli sohalarida "Alpomish"ning turli talqinlardagi obrazi yaratildi. Xususan, teatr, kino, tasviriy va amaliy san'atda bu obrazga turlicha yondashildi. Ayniqsa, mahobatli haykaltaroshlik san'atining bu borada erishgan yutug'ini alohida ta'kidlash joiz.

Termiz shahrida epik qahramon Alpomishning ramziy haykali bunyod etildi. Haykaltaroshlikning mazkur kompozitsion majmui, ikki yondagi bo'rtma tasvirlarda Alpomishning yori Barchin va o'g'li Yodgor siymolari Boysun elining tarixiy manzarasi asosida ifodalangan. Alpomishning mahobatli qiyofasini ochib berish uchun turli kampozitsion yechimlarga murojat qilinib turli elementlardan unumli foydalanilgan. Chap qo'lidagi kamoni ozodlik va erkinlikning timsoli bo'lsa, o'ng qo'lga qo'nim topgan qush maktub eltuvchi vosita sifatida ifodalangan. Bu maj'mua A.Rahmatullaev, Q.Norxo'rozov, U.Mardiev, P.Podosinnikov kabi haykaltaroshlar tomonidan bunyod etilgan.

Bundan tashqari R.Mirtojiyev ijodiga mansub yana bir monumental haykaltaroshlik asari Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi munosabati bilan shahar markazida o'rnatilgan "El-yurt tayanchi" monumenti. Bu muazzam monumentni ishlash uchun haykaltarosh Qashqadaryo xalqining o'ziga xos madaniyati, xulq-atvori kabi umumiy xususiyatlarini o'rganish uchun shahar va qishloqlarda bo'ldi, odamlar, ularning turmushi bilan yaqindan tanishdi. Natijada vohamizning mehnatkash, bunyodkor xalqi, ilmga chanqoq, o'sib kelayotgan yosh avlod vakillari siymosini o'zida mujassam qilgan monumental haykaltaroshlik asarini yaratdi. Aytish mumkinki, bu manument ham Ravshan Mirtojiyev ijodidagi yetuk asarlardan biri bo'lidi.

Mustaqilligimizning ezgu - intilishlarini teranroq ifodalash, yoshlarimizning ma'naviy olamini Ezgu g'oyalar asosida shakillantirish maqsadida Birinchi Prezidentimiz I.Krimov tashabusi bilan 2005-yil Mustaqillik maydonida "Ezgulik arkasi" Bunyod etilib, Baxtiyor ona haykali qo'yildi. Toshkent shahridagi Mustaqillik maydonida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov

g'oyasi bilan bunyod etilgan me'moriy badiiy majmua. O'zbekiston istiqbolining dastlabki yillarida maydonda o'rnatilgan obida Mustaqillik manumenti deb atalgan. Ramziy ravishdagi Yer sharida O'zbekiston Respublikasi xaritasi aks etgan ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O'zbekiston mamlakati mustahkam o'rin olganini ifodalaydi. 2005-yil 28-dekabrda ushbu monument oldiga farzandini bag'riga bosib turgan munis o'zbek ayoli siymosi Baxtiyor ona haykali o'rnatildi ushbu manument haykaltarosh I.Jabborov tomonidan yaratildi Mustaqillik monumenti va Baxtiyor ona haykali Ezgulik arkasi, oq poyonoz shaklidagi keng yo'lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil qiladi. Mustaqillik va ezgulik tushunchalarini o'zida mujassam etgan.

Davlatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va g'oyasi asosida hamda yana bir asar haykaltarosh R.Mirtojiyevning mashaqqatli harakatlari va ijodiy salohiyati asosida bunyod etilgan 2010-yil 12-yanvarda poytaxtimizda ochilgan "Vatanga qasamyod" monumenti o'zida chuqur hayotiy falsafani, teran ma'no-mazmunni ifoda etadi. Bu majmuada azamat o'g'lon davlatimiz timsoli – bayrog'imizni o'pib, Vatan himoyasi uchun, qutlug' zaminning har qarich tuprog'ini asrash uchun tayyorman deb tiz cho'kib qasamyod qilayotgan askar ifoda etilgan. Tiz cho'kib turgan askar ortida Ona Vatan timsoli – mo'tabar ona harbiy xizmatga o'tlangan aziz farzandiga fotiha berib, oq yo'l tilayotgan holatdagi relyef kampazitsya mazmunini yanada mukammalashtirgan. Ushbu haykal siymosida Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilishga tayyorgarlik ko'rayotgan ming-minglab shijoatli yoshlarimizning yuksak orzu-intilishlari o'z aksini topgan. Ayni paytda "Vatanga qasamyod" haykali oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonida, xususan, kursantlarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirishda o'ziga xos monumental darslikdir.

Yana bir bobokalonimiz xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik bu 2010-yilda O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qurilgan Ulug'bek rasadxonasi yonida Samarqandda Mirzo Ulug'bek nomidagi memorial muzey yonida yulduzli osmon tasvirlangan panel fonida Mirzo Ulug'bekning o'tirgan holatdagi ulkan yodgorligi ochildi. Ushbu monumental haykaltaroshlik

asarini dastlab mustaqillik davrining ilk yillariga nisbatan kampazitsiyaning murakkabroq yechimiga ega ekanligini ko'ramiz. Unda shox va falakiyot ilmining sultoni Mirzo Ulug'bek o'ziga cho'mgan o'tirgan holatda yasalgan. Ushbu haykaltaroshlik namunasi o'z davrida yaratilgan boshqa mahobatli haykallardan orqa fonining o'ziga hos yechimi bilan ajralib turadi bu haykaltaroshlik sohasida yangilik bo'ldi.

Mustaqillik davri mahobatli haykaltaroshligining ilk yillari tarixiy shaxslar va millat ma'naviyatini yanada boyitishga qaratilgan mahobatli haykallar yaratilgan bo'lsa 2001-2010 yillarda yuqorida nomlari keltirilgan asarlardan tashqari "Tinchlik stelli" (2007), "Abdulla Qaxor" (2007), "Mustaqillik va ezgulik monumenti" (2005), "G'ofur G'ulom" (2003), "Zulfiyaxonim" (2008), "Rudakiy" "Oybek" (2010) yaratilgan mahobatli haykallar tarixiy shaxslar obrizini yanada boyitish davri desak bo'ladi. Ushbu davirda mahobatli haykaltaroshlik taraqqiyoti darida yosh ijodkorlar Norboyev Baxrom, Jasvant Annazarov, Pavel Makrov, Sodiq Namozov kabi ijodkorlar ham o'zlari yaratgan san'at asarlari bilan sekin astalik bilan kirib keldilar.<sup>4</sup>

Mustaqillik davri haykaltaroshligining o'ziga xos bo'limini dekorativ haykallar tashkil etadi. Haykaltaroshlarning plastik imkoniyatlari kengayishi, rang qo'llanilishi, fazo bilan uyg'unlik hamda yangi intonatsion nyuanslaridan haykalning nazmiyligini boyituvchi bo'rttirishlar istexzolar hisobigadir. Haykallarning mavzulari bugungi kunda o'zida tarixni va zamonaviy syujetlarni mujassamlashtirgan. Shubhasiz, O'zbekiston zamonaviy mahobatli haykaltaroshligining o'z yutuq va muammolari mavjud. Haykaltaroshlik bo'yicha xalqaro simpoziumlarni o'tqazish zarurati, rassomlarimizning dunyo madaniyatiga chiqishi, yosh iste'dodli haykaltaroshlarni tayyorlash, o'qitish tizimini yaxshilash, obrazli-mazmuniy tizim boyish yangi texnologiyalar, undan tashqari haykallarning shahar muhitiga uyg'un tarzda kirib borishi, uning me'morchilik, landshaft va boshqa sohalar bilan uyg'unligi ma'lum bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning

---

<sup>4 4</sup> D. Po'latov. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San'atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent-2007. 21-22-b  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

zamonaviy haykaltaroshligi o'zining tarixiy davrini, uning ustunligini, imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.<sup>5</sup>

2013-yil Shanxay universitetida Xitoy va O'zbekiston o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan 3 tonnalik buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiyning haykali ochildi. Shanghai Daily'matbuot xizmatining habar berishicha bronza haykalning balandligi 3,6 metr, postament (haykal o'rnatiladigan maxsus supa) esa – 1,8 metrga teng. Haykal loyihasi o'zbek haykaltaroshi Ravshan Mirtojiev tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bevosita xitoylik haykaltarosh tomonidan yaratildi.<sup>6</sup>

2016-yili Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti hovlisiga I.Jabborov tomonidan ishlangan "Alisher Navoiy" haykalining o'rnatilishi bu yana bir bor buyuk bobokalonimiz sharafini ulug'lash demakdir.

Tarixiy shaxslar obrazlari ustida izlanishlar va ularga bag'ishlab o'rnatilyotga mahobatli haykallar tinimsiz davom etmoqda misol uchun 2016-yilida Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti hovlisiga Jabborov tomonidan ishlangan "Alisher Navoiy" haykalining o'rnatilishi bu yana bir bor buyuk bobokalonimiz nomini sharaflashdir. Ilhom Jabborovning shu oxirgi yillarda ya'ni 2017-yilda yaratgan O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov xotirasini abadiylashtirish uchun yaratilgan Islom Karimovning mahobatli haykalini alohida aytib o'tishimiz joiz.

Davlatimiz rahbarining 2017-yiln 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq I.Karimov siymosini yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovda g'olib deb topilgan haykallarni mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida Islom Karimov tug'ilib o'sgan Samarqand shahrida va u kishi birinchi raxbar bo'lib ishlagan Qashqadaryo viloyatining o'rnatish belgilangan edi.

Bu tanlovda I.Jabborov tomonidan yaratilgan obraz g'olib deb topildi. Va Toshkentdagi Oqsaroy binosi hovlisiga o'rnatildi.

---

<sup>5</sup> Hakimov. A. "O'zbekiston tasviriy san'ati antalogplya" 1. 2011

<sup>6</sup> <https://kun.uz/uz/news/2017/03/14/sanhajda-aliser-navoiy-ajkali-ocildi>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

Oqsaroy binosining oq marmar plitalardan iborat fonida Islom Karimov haykali judayam ulug'vor ko'rinadi. Garchi bu asar u darajada mahobatli bo'lmasada, u joylashgan bino bilan birga uyg'unlashib ketgan. Haykaltarosh haykal kompozitsiyasi yechimiga alohida urg'u bergan. Ko'p hollarda haykallar statik ko'rinishda bo'ladi. Bu yerda birinchi prezidentning tinib tinchimas xarakteri, el-yurt ravnaqi uchun jon kuydirayotgan holati uning dinamikaga boy holatida ochib berilgan. Karimov obrazi uchun statik holatdagi haykal uning ichki xarakteriga mos tushmasdi shu sababli, haykaltarosh tomonidan uning ichki xarakterini ochib beruvchi obraz tanlangan. Bu haykalda Islom Karimovning nisbatan o'rta yosh holati ya'ni prezidentlikka kelgan davri ochib berilgan va tik turgan holatda yurib ketayotganday qilib tasvirlanishi uning hali kelajakda juda katta marralarni zabt etamiz degan g'oyani anglatadi. Haykalning yuz ifodaviylikiga e'tibor beradigan bo'lsak, uning nigohlari ona zaminga, xalqqa qarab turibdi negaki unda hali biz xalq bilan birga buyuk ishlarni ado etamiz deyayotganday taassurot uyg'otadi. Karimov haykali rasmiy libosda tasvirlangan. Haykaltarosh gipsning xususiyatini ham hisobga olib, u darajada ko'p drapirovkadan foydalanmagan chunki bu asarning obraziga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Haykaltarosh ushbu asari orqali o'zbek xalqining tinib-tinchimas, jonkuyar xarakteriga mos ravishda Islom Karimov obrazini yarata olgan.

Ilhom Jabborov shogirdlari bilan birgalikda Abu Rayhon Beruniy (mis, 6 metr) mahobatli haykalini ham yaratdi.

Haqiqiy ijodkor hech qachon ijod qilishdan to'xtamaydi. U har doim yangilik izlaydi va o'z bilim va ko'nikmalarini boyitib boradi. Ilhom Jabborov ham haykaltaroshlikda olgan bilimlarini ko'plab shogirdlariga o'rgatib kelmoqda. Shulardan Asrorov O'tkir, Boqiyev Yigitali kabi shogirdlari ustozlari izidan borib, uning an'alarini davom ettirmoqdalar.

Toshkent, 11-dekabr Chilonzor tumanida poytaxtga kiraverishda "Buyuk ipak yo'lidagi karvon" haykaltaroshlik kompozitsiyasi o'rnatildi. 2017-yil 6-dekabr, kuni bir guruh haykallar cho'l orasida ketayotgan bir qator ustiga yuklar ortilgan tuyalar ularning oldida tuyalarni boshqarib borayorgan savdogarlar haykallari



ishlandi. Ushbu haykaltaroshlik san'ati asarlari mualliflari Pavel Makarov, haykallar Sodiq Namozov singari haykaltaroshlar ishtirokida yaratilgan.

Kompozitsiya ochilishi munosabati bilan Chilonzor tumani hokimi Davron Hidoyatov va turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi rahbari Aziz Abduhakimov so'zga chiqdi.

2017-yil Milliy bog'da 8-gektardan ziyod maydonda Adiblar xiyobonining yaxlit me'moriy haykallar ansambli yaratildi. Ilgari bu yerda sanoqli adiblarimizning haykallari bor edi. Go'yoki, Alisher Navoiydan so'ng iste'dodli shoirlar yetishib chiqmaganday taassurot paydo bo'lardi. Shu bois Adiblar xiyobonini g'oyaviy-badiiy jihatdan yanada boyitish maqsadida Bobur, Ogahiy, Berdaq, Muqimiy, Furqat, Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, To'labergen Qayipbergenov, Ibroyim Yusupov, Aleksandr Faynberg singari atoqli namoyandalar xotirasiga bag'ishlangan yodgorliklarni zamonamizning ite'dotli haykaltaroshlari R.Mirtojiev, I.Jabborov, Y.Shapiro, B.Norboyev, F.Axmedjanov, O.Olloberganov, T.To'jixojayev, U.Usmonov, J.Annazarov, O'.Axrolov, tomonidan yasalishi.

O'z o'rnida yaratilgan haykallar ijodkorlarning mahorot maydoniga aylandi. Akademik haykaltaroshlar yosh haykaltaroshlardan tajriba va malaka jihatidan mohirroq .

Hazrat Navoiy bobomizning muhtasham haykali atrofida 20 dan ziyod atoqli shoir va adiblarning haykallari yaxlit me'moriy va badiiy kompozitsiyada, mantiqiy yechim asosida joylashtirildi. Shu yerda Yozuvchilar uyushmasi uchun bino barpo etilgani ham hamohanglik kasb etdi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bu yerga tashrif buyurib, Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'ydi. Xiyobonda amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Yozuvchi va shoirlar, ziyolilar bilan uchrashuvda milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, galdagi muhim vazifalar haqidan biri ekanligini ta'kidladilar.

Dastlab "Adiblar hiyoboni"dagi haykallar barchasi gipsdan o'rnatilgan bo'lib

2020-yilda ulaning barchasi ya'ni yigirma nafar adibning haykallari barchasi bironzaga aylantirildi.

Mustaqillik davri mahobatli haykaltaroshligining ilk yillari tarixiy shaxslar va millat ma'naviyatini yanada boyitishga qaratilgan mahobatli haykallar yaratilgan bo'lsa 2001-2010 yillarda yuqorida nomlari keltirilgan asarlardan tashqari "Tinchlik stelli" (2007), "Abdulla Qaxor" (2007), "Mustaqillik va ezgulik monumenti" (2005), "G'ofur G'ulom" (2003), "Zulfiyaxonim" (2008), "Rudakiy" "Oybek" (2010) yaratilgan mahobatli haykallar tarixiy shaxslar obrizini yanada boyitish davri desak bo'ladi.

Ushbu davirda mahobatli haykaltaroshlik taraqqiyoti darida yosh ijodkorlar Norboyev Baxrom, Jasvant Annazarov, Pavel Makrov, Sodiq Namozov kabi ijodkorlar ham o'zlari yaratgan san'at asarlari bilan sekin astalik bilan kirib keldilar.

O'zbekiston mahobatli haykaltaroshligida o'zining bdiy mahorati bilan ajralib turadigan . O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari I. Jabborov, K.Jabborov, R.Mirtojiyev, Y.Shapiro, B.Norboyev, F.Axmedjanov, O.Olloberganov, T.To'jixojayev, U.Usmonov, J.Annazarov, O'.Axrolov, Rustam Ermetov kabi san'atkorlar ijodida obraz yechimining hayotiy ko'rinishiga muvofiqligi, realistik an'analarni yetakchi o'ringa ko'tarilishi, shuningdek haykallarning ulug'vorlik jihatiga katta e'tibor berish xususiyatlari jadallashdi.

Ayniqsa, qadimgi va uyg'onish davri haykaltaroshlari merosini ijodiy tahlil va tadbiq etishga urinishi asarlarining plastik kompozitsiyasiga sezilarli ta'sir qildi.

Haykaltaroshning ilk ijodiy namunalari ham e'tiborga molikdir. U mahobatli haykaltaroshlik sohasida mustaqillik davrida dastlabki o'n yillik tarixiy milliy qahramonlar obrazlari ustida olib borilgan izlanishlar jarayoni edi.

Misol tariqasida M.Nabiyevning "Amir Temur" "Alisher Navoiy", "Zxriddin Muhammad Bobur" singari bir qator tarixiy obrazlari bugungi kunda yaratilyotgan sohibquron Monumental haykallariga asos qilib olinganligini ko'rishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABYOTLAR**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 704 b.
2. O'zbekiston haykaltaroshligi katalogi (1991-2006) / O'zbekiston Badiiy akademiyasi. – T.: OOO MEDIA LAND, 2006. – 32 b.
3. D. Po‘latov. O‘zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. San’atshunoslik fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiya. Toshkent-2007. 21-22-b